

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi – postindustrial jamiyat iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchidir

Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu xususan, sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta va ahamiyatlidir. Bu ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir.

Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, sug'urta va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar tovarlar savdosining ajralmas qismi hisoblanadi (ayniqsa texnik jihatdan murakkab), chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan keyingi xizmatlardan iborat rivojlanayotgan tarmoqni talab qiladi.

Yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinalarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

2019-yil 1-oktabr holatiga Toshkent shahrida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 80,9 ming taga yetdi. Xizmatlar sohasiga 59,0 mingtasi iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 72,8 % ga yetdi. Ularning o'sishi 27,2 % ga ko'paydi.

**2019-yil 1-oktabr holatiga faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2019-yil 1-oktabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo xizmatlari bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (33,3 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning soni 9,8 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi va xizmatlar sohasidagi tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ularning umumiyligi sonidagi ulushi 5,6 % ni yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,2 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatda xizmatlarlar sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiyligi sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



**O'sish sur'ati
116,7 %**

**Hajmi 9 785,2
mlrd. so'mga
oshdi**

**Xizmatlar hajmi
46 102,9
mlrd. so'm**

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (158,0 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlari (130,2%), shaxsiy xizmatlar (113,7%), yashash va ovqatlanish xizmatlari (106,1%) qayd etildi.

(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Moliyaviy xizmatlar



Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar



Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Transport xizmatlari



Shaxsiy xizmatlar



Savdo xizmatlari



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar



Ta'lim sohasidagi xizmatlar



Boshqa xizmatlar



Ijara xizmatlari

Yuqori bo'limgan o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlar (98,6 %) shuningdek boshqa xizmatlarida (102,1 %) kuzatildi.

(dastlabki ma'lumotlar)


**2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mldr. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	46 102,9	116,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	4 133,9	105,3
Moliyaviy xizmatlar	13 292,5	158,0
Transport xizmatlari	5 407,2	104,5
shu jumladan:		
avtotransport xizmatlari	3 189,8	102,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 853,9	106,1
Savdo xizmatlari	11 040,0	104,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2 004,5	104,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 976,9	98,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	869,6	111,5
Ijara xizmatlari	916,1	103,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	261,1	130,2
Shaxsiy xizmatlar	553,9	113,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 440,1	103,7
Boshqa xizmatlar	2 353,2	102,1

Sifatli o'zgarishlar va institutsional islohatlar chuqurlashishi bilan bir qatorda chakana savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmatlar kabi xizmatlar turlari asosan xususiy tadbirkorlikni faollashuvi hisobiga jadal rivojlanmoqda.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 46 102,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 9 785,2 mlrd. so'mga oshdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlarning umumiyligi hajmida Yunusobod tumanining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 17,3 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlarining umumiyligi hajmida hududlarning ulushi, %




Shuningdek, eng katta ulush Mirobod (15,2 %), Shayxontohur (10,8 %), Mirzo Ulug'bek (10,6 %) va Yashnobod (10,4 %) tumanlarida qayd etilgan.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bektemir (2,7 %), Uchtepa (4,7 %), Olmazor (5,2 %) va Yakkasaroy (6,0 %) tumanlarida qayd etildi.

(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Eng past o'sish sur'atlari ta'lif sohasidagi xizmatlar (98,6 %), boshqa xizmatlar (102,1 %), ijara xizmatlari (103,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (103,7 %), savdo xizmatlari (104,5 %) va transport xizmatlari (104,5 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	46 102,9	116,7
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	1 264,9	105,3
Mirzo Ulug'bek	4 828,8	114,5
Mirobod	6 998,2	117,0
Olmazor	2,453,6	112,4
Sergeli	2 766,5	112,0
Uchtepa	2 174,2	101,4
Chilonzor	4 702,1	123,7
Shayxontohur	5 117,7	121,2
Yunusobod	7 992,6	108,4
Yakkasaroy	2 815,7	101,2
Yashnobod	4 717,0	124,3
Tumandan tashqari	271,6	113,8


(dastlabki ma'lumotlar)

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha ko'rilibotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tarkibidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, Internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida moliyaviy xizmatlar ulushi eng katta 28,8 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (24,0 %), transport xizmatlari (11,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,0 %), boshqa xizmatlar (5,1 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (4,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (4,0 %), shuningdek ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,3 %) kuzatildi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 13 292,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5 027,5 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari, %




2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Chilonzor (2,0 marta), Shayxontohur (2,0 marta), Mirzo Ulug'bek (55,4 %) va Yashnabod (52,0%) tumanlarda kuzatilmoqda.

Boshqa tumanlarga nisbatan shu davr uchun o'sish sur'atlari Sergeli (111,9 %), Bektemir (115,8 %) va Olmazor (127,4 %) tumanlarida sezilarli emas.

Moliyaviy xizmatlar umumiyo hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,1 % ni tashkil etadi.

(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik chakana tashkilotlari - chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, yengil konstruktiviy pavilonlar va yarmarka turlarining soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynaydi, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'tasidagi bog'liqlikni amalga oshiradigan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, shuningdek, ularning turlari va sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

(dastlabki ma'lumotlar)


2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumi hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 24,0 % ni tashkil etib, bu 11 040,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) umumi savdo xizmatlari hajmining qariyb yarmini – 46,7 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlarining ulushi 44,9 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumi hajmidagi ulushi 8,4 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-sentabr oylari uchun savdo xizmatlari tarkibi, %



Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z


(dastlabki ma'lumotlar)

navbatida turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmog'ini kengaytirish, binolar va inshootlarni qurish hamda rekonstruktsiya qilish bo'yicha loyihalarni davom etishi bilan bog'liq.

Bugungi kunda Toshkent shahrida transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun ulkan salohiyat va barcha yo'nalishlarda, hamda transportning barcha turlarida yuk va yo'lovchilarni tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondirish uchun noyob imkoniyatlarga ega.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'gri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, %



Transport xizmatlari umumiylajmi hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 59,0 % ni tashkil etadi.

(dastlabki ma'lumotlar)

Bundan tashqari, saqlash va yordamchi transport xizmatlari 36,8 % tashkil qilgan bo'lsa, temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar – 2,5 %. Kurerlik va pochta faoliyati ulushi esa 1,7 % ga etdi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari, aloqa vositalari bilan jihozlanganligi kuzatilmoqda.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 4 133,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sishi 5,3 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmiy hajmidagi ulushi 9,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'l doshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 67,6 % ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiyo hajmida nashriyotchilik xizmatlari 8,7 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 11,4 %, axborotlashtirish xizmatlari - 4,9 %, boshqa xizmatlar – 7,4 % ni tashkil etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.



2019-yil yanvar-sentabr oylarida taʼlim sohasidagi xizmatlar hajmi 1 976,9 mlrd. soʼmga yetib, oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 247,9 mlrd. soʼmga koʼpaydi.

2017-2021 yillarga moʼljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yoʼnalishlaridan biri hisoblangan taʼlim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:


uzluksiz taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli taʼlim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

taʼlim va oʼqitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy taʼlim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy taʼlim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich koʼpaytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini ragʼbatlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy oʼquv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

(dastlabki ma'lumotlar)

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida
ta'lif sohasidagi xizmatlarining tumanlar miqiyosidagi tarkibi,
mlrd.so'm.**




Ko'rsatilgan ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Olmazor tumanida qayd etildi. 2019-yil yanvar-sentabr oylarida 300,6 mlrd. so'mga yetdi.

Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu yerda joylashganlidadir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'ati Mirzo Ulug'bek tumanida – 105,7 % ni tashkil etdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-sentabr oylarida tumanlar kesimida ta'lif sohasidagi xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari, %




Bundan tashqari, ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Chilonzor (103,9 %), Yashnobod (104,2 %), tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida eng past o'sish sur'ati Yakkasaroy tumanida – 84,1 % qayd etildi.


2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 106,1 % ni tashkil etdi, hajmi esa 338,8 mlrd. so'mga oshdi va 1 853,9 mlrd. so'mga etdi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 72,2 % bilan ustunlik qiladi.

(dastlabki ma'lumotlar)

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %**

- Oziq-ovqat va ichimliklar bilan taʼminlash boʼyicha xizmatlar
- Yashash xizmatlari

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan yashash boʼyicha xizmatlar hajmi 338,8 mlrd. soʼmga oshdi, ulushi 4,0 % ni tashkil etdi. Ushbu turdagи xizmatlarning oʼsishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottejlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga boʼlgan aholining talabi oʼz hissasini qoʼshdi.

Yashash va ovqatlanish boʼyicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Yunsobod tumanida 528,9 mlrd. soʼmni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 90,1 mlrd. soʼmga oshishi qayd etildi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida tumanlar kesimida
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning
o'sish sur'atlari va hajmi**




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kichik hajmi Bektemir tumanida – 15,8 mlrd. so'm qayd etilib, 3,9 mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarining eng yuqori o'sishi Shayxontohur tumanida qayd etildi (32,0%). Bundan tashqari, Uchtepa (17,3 %) va Bektemir (15,0 %) tumanlarida xizmatlar o'sishi kuzatildi.

Mirzo Ulug'bek tumanida o'sish sur'atlari nisbatan katta bo'limgan. Ular 95,0 foizni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 869,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 % ni tashkil etadi.

Jami sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmida tumanlar kesimidagi ulushini taqqoslanishi, %



Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

Tumanlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha etakchi o'rinni Olmazor tumani egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 88,8 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 20,9 % ni tashkil etdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Mirzo Ulug'bek (18,5%), Chilonzor (13,2 %) va Yunusobod (10,8%) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi xizmatlar ulushi nisbatan katta bo'lмаган туманлар Bektemir (0,7 %) va Sergeli (1,5 %) туманлари hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir.

Mamlakatimizda post-industriyadan keyingi axborot jamiyatiga shakllanar ekan, aholining ehtiyojlari tobora o'sib borishi va ularning xilma-xilligi kengayib borayotganligi sababli, xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora ortib bormoqda.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-88-15